

FYODOR MIXAYLOVICH DOSTOYEVSKIYNING “OYDIN TUNLAR” ASARI
ASOSIDA BIOGRAFIK TAHLIL

Qarshiboyeva Shohsanam

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17458247>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy qalamiga mansub “Oydin tunlar” romani biografik metod asosida tahlil qilingan. Bu asarda Dostoyevskiy shaxsiyatidagi muammolar, hayoliy va real dunyo o‘rtasidagi farqlar aniq ifodalangan.

Shuningdek, biografik metod yordamida yozuvchi yashagan davrga xos xususiyatlari taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: biografik metod, realizm, romantik, xayolparastlik, yolg‘izlik.

BIOGRAPHICAL ANALYSIS BASED ON FYODOR MIKHAILOVICH
DOSTOEVSKY'S "MOONLIT NIGHTS"

Abstract. This article analyzes Fyodor Mikhailovich Dostoevsky's novel “White Nights” through the lens of the biographical method. The study highlights the writer's inner psychological conflicts and the contrast between the imaginary and the real world. Furthermore, the article interprets the social and emotional characteristics of the era in which Dostoevsky lived using a biographical approach.

Keywords: biographical method, realism, romanticism, imagination, loneliness.

БИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО ПРОИЗВЕДЕНИЮ ФЁДОРА МИХАЙЛОВИЧА
ДОСТОЕВСКОГО «ЛУННЫЕ НОЧИ»

Аннотация. В данной статье роман Фёдора Михайловича Достоевского «Белые ночи» анализируется с использованием биографического метода. В произведении чётко отражены внутренние проблемы личности писателя, различие между воображаемым и реальным мирами. Кроме того, с помощью биографического подхода интерпретируются социально-психологические особенности эпохи, в которой жил Достоевский.

Ключевые слова: биографический метод, реализм, романтизм, воображение, одиночество.

XIX asrga kelib Rossiya jamiyat turli siyosiy o‘zgarishlar oqimida edi. Bu adabiyotga ham jiddiy ta’sir o‘tkazdi, rus adabiyoti romantik yo‘nalishdan voz kechib g‘arbga taqlid qilib realizmga o‘ta boshladi. Yozuvchilar o‘z asarlarida asosan oddiy xalq va ularning iztiroblari, yashash uchun kurashlarini markaziy obrazga olib chiqish bu davr adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biriga aylandi.

Tabaqalanish tanqid ostiga olindi, Gogol, Turgenev, Belinskiy, Dostoyevskiy aynan shu mavzuda juda ko‘plab mashhur asarlar yaratishdi. Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” romani ham shu davrning maxsulidir. O’sha vaqtda Rossiyaning barcha shaharlarida jumladan Sank peterburgda ham jiddiy o‘zgarishlar bo‘layotgan edi. Shaharlardanda turli obodonchilik ishlari amalga oshirilib, shahar manzarasi yanada go‘zallashib borayotgan edi.

“19-asrda Sankt-Peterburgda jadal modernizatsiya qilinayotgan shaharni boshqaradi - kengaytirilgan xiyobonlar, yangi arxitektura va o'sib borayotgan aholi bilan, bu uning aloqadan uzilish hissini paradoksal ravishda kuchaytiradi”¹.

“Biografik metod adabiyotshunoslikdagi kontekstual tahlil metodlaridan biridir. Ushbu metod XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lib, asoschisi sifatida fransuz olimi Sh.Sent-Byov e'tirof etiladi. Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Zero, badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslanadi, shunday ekan uning ko'p qirralari muallif biografiyasi kontekstida anglashiladi. Boshqacha aytganda, ushbu metod asarga muallif yuklagan mazmunni anglashda etakchi ahamiyat kasb etadi.”² Ushbu metod yordamida biz yozuvchining shaxsiy hayotidagi voqealar uni asariga qay darajada ta'sir qilganini anglaymiz. Shu tufayli asarga bo'lgan qiziqish yanada ortadi, uning yangidan yangi ma'nolarini kashf etamiz. “Oydin tunlar” asari orqali kitobxon nafaqat Rossiyaning 1840-yillatdagi holati balki yozuvchining ichki kechinmalari yolg'izlik va xayolparastlik haqidagi takrorlanmas fikrlaridan bahramand bo'lishimiz mumkin.

Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy o'z ijodiy uslubini yaratgan buyuk shaxsdir. Uning asarlarida har bir qahramon o'z fikri va azoblari ochiq ayta oladi va ularning psixologik holatlari bir birini takrorlamaydi. Bu Dostoyevskiy mahoratining mevasidir. U ijodining ilk davrlaridanoq personajlarining ruhiy olamiga kuchli etibor berdi, ularning har biriga alohida yondashgan holda o'zining ichki olamini ularga singdirib yuborishga erishgan. “Oydin tunlar” ijodining ilk davrlarida yozilgan asardir. Ushbu hikoyaga yozuvchining Peterburgdagi yolg'izligi, javobsiz sevgilari asos qilib olingan. Asar bosh qahramoni xayolparast 26 yoshda bo'lsa ham xuddi Dostoyevskiydek hali hayotda o'z o'rnini topmagan, yolg'iz va xarob holatda yashagan, aytib o'tishimiz joizki bu hikoya yozilgan vaqtda yozuvchi 27 yoshda bo'lgan. Ijodkor onasidan erta ayrilgan va qattiqqo'l ota qo'lida tarbiya topganligi sababli ham mehrga tashna bo'lgan, biroq odamlar bilan yaqin aloqa o'rnatishga qiynaladi. Shuning uchun ham yolg'iz yashaydi, hech kim bilan suhbatlasha olmaydi, bu holatni biz xayolparastda ko'rishimiz mumkin. Ularning har ikkisi ham o'z yolg'izligini kechalari bilan Peterburg ko'chalarida sayr qilish bilan yengishga harakat qilishadi. Ko'chalar, ulardagi har bir uy tanish go'yo uylar ularga o'zining holati haqida bazan arz-u dod qiladi, bazan esa o'z baxtini ko'z-ko'z qilib maqtanadi. Odamlar esa bazan asabiy, bazan esa xursand holatda ularga qarab o'tayotgandek tuyuladi. Aslida esa bularning bari ularning tasavvurida bo'ladi xolos. O'tkinchilarning hech biri xayolparastga e'tibor bermaydi, ularning barchasi o'z uylariga yaqinlarining yoniga shoshishadi. Xayolparastning o'zi aytganidek “Ular juda baxtli negaki, ularning hayoti pufakdek yorilib yo'qolib ketmaydi”³, ularning hayoti muntazam zanjirlar bilan qattiq bog'langan. Bunday bog'liqlik xayolparastda ham ijodkorimizda ham yo'q, shu bois ularning har ikkisi ham xayolot olamidan o'zlariga najot izlashadi.

¹ https://www.britannica.com/topic/White-Nights?utm_source=chatgpt.com

² Karimov O. Adabiy tanqid asoslari o'quv qo'llanma. -Namangan, 2024. -b 129

³ Достоевский Ф.М. Маѳсума: Сайланма. – Т.: Адабиѳт ва санѳат нашриѳти, 1985. – 159 6

Bir xayolni tugatib ikkinchisiga o'taverishadi, bu ishlari bilan umrlarini yelga sovurayotganini bilishsa ham to'xtashmaydi, chunki ular bilishadiki, agar tasavvur qilishdan to'xtashsa ular yana o'zlarining ma'nosiz hayotlariga qaytishadi.

Yozuvchi yaratgan asarlarida sevgi va rahm-shafqatni insonni qutqaruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Bosh qahramon Nastenkani uchratgach, u o'zini tirik his qiladi, bu Dostoyevskiyning hayotdagi o'zgaruvchan ruhiy holatini eslatadi. Bu holat xayolparastda ham kuzatiladi, u ham qizning oldidagi o'rni faqat oddiy do'st bo'lsa ham xayolparast Nastinkani sevishdan to'xtay olmaydi. Nastinka obrazi yozuvchining hayotida uchragan Apollinariya Suslova yoki Mariya Dmitriyevna bilan bog'liq deb qaraladi. Shuningdek, Dostoyevskiy sevgan ayollar unga iliq, ammo beqaror va javobsiz hislar bergan. "Oydin tunlar" da bu holat majoziy shaklda aks etadi.

Nastinka ham ijodkorning real hayotida uchragan ayollardek go'zalligi, xushmuomalaligi, yigitga hurmat qilib munosabatda bo'las. Qizning yigitni tinglashi, biroq ba'zan yaqin do'st, bazan esa haqiqiy oshiq inson ko'rinishida gavdalanishi orqali Dostoyevskiy hayotidagichigal munosabatlarining asardagi ko'chgan ramziy shaklini ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlashimiz joizki, sevgi insonni ulug'aytiradi. Unga hayotiga boshqa ko'z bilan qarashiga sababchi bo'ladi. Xayolparast ham Nastinkadan ayrilgach o'z uyiga, Matriyonaga va xatto o'ziga boshqacha nazar bilan qaraydi. Unga hayoti go'yoki oldingidan ham ayancli holatga kelib qolgandek tuyuladi. "Matriyonaga qaradim... Tetik hali baquvvat kampir edi. U, lekin negadir, to'satdan qovoqlari shishgan, yuzlari ajin qoplagan, munkaygan qarib qolganday ko'rindi... Negadir xonam ham shu kampir kabi qarib qolgandek tuyuldi. Devorlari, pollari eskirib ketibdi: o'rgimchak inlari battarroq ko'paygandek"⁴. Xayolparast o'zining tushkun hayotini go'yoki o'n besh yildan keyingi hayotini ko'rgandek bo'ladi, yana yolg'izlik ichra qoladi.

U bir lahzalik baxtdan so'ng yana o'zining rangsiz hayotidaga qaytganidan ruhiy tushkunlikka tushib qoladi. Bu holat yozuvchi hayotida ham kuzatilgan, u ham sevgisidan ayrilgach ruhiy kasalliklar bilan kurashgan, uning epilepsiya xurujlari, ruhiy tushkunlik va hayotdagi iztiroblari boricha asarga ko'chgan. Dostoyevskiy xayolparastning ishqiy iztiroblari orqali o'zining ichki tug'yonlarni aytishga urinadi, aynan shuning uchun u bosh qahramoniga ism qo'ymasdan uni shunchaki xayolparast deb ataydi.

Xulosa qilib aytganda, Biografik metod orqali "Oydin tunlar" asarini Dostoyevskiyning shaxsiy kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hayot falsafasining badiiy shakli sifatida talqin qilish mumkin. Asarda yozuvchining hayotiy dramtizmini ifoda etilgan: xayol va haqiqat to'qnashuvi, bir tomonlama sevgining vaqtinchalikligi, yolg'izlikdan najot izlash kabi g'oyalar Dostoyevskiyning ichki dunyosida to'la qonli aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov O. Adabiy tanqid asoslari o'quv qo'llanma. -Namangan, 2024.
2. Достоевский Ф.М. Маѡсума: Сайланма. – Т.: Адабиѡт ва санъат нашриѡти, 1985.
3. https://www.britannica.com/topic/White-Nights?utm_source=chatgpt.com

⁴ Достоевский Ф.М. Маѡсума: Сайланма. – Т.: Адабиѡт ва санъат нашриѡти, 1985. – 203 б